International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

KASPIYORTI VILOYATIDA GEOLOGIK IZLANISHLAR TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI XX BOSHLARI)

Xamidova Xuriyat G'afurjon Qizi
Ijtimoiy-siyosiy fanlar instituti
katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mamlakatimiz tarixini tadqiq etishda, bo'lib o'tgan voqea – hodisalarga baho berishda xolis hamda tarixiylik tamoyili nuqtai –nazaridan chetlashmaslik nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu o'rinda, Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasini zabt etishdan ko'zlagan maqsadlarini tadqiq etish va mazkur masalaga nisabtan mavjud qiziqish bugungi kunda zamonaviy tarix faninig dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Turkiston istilosi boshlanishidan ilgariyoq bu erdagi foydali qazilmalarni o'rganish ishlari boshlangan bo'lib, ayniqsa o'lka bosib olinganidan keyingi davrda Turkistonning tabiiy boylik manbalarini o'rganishga qattiq kirishilib, juda ko'p ma'lumotlar qo'lga kiritilgan

KALIT SO'ZLARI

kaspiy, geologik, tarix, turkiston

Mamlakatimiz tarixini tadqiq etishda, bo'lib o'tgan voqea – hodisalarga baho berishda xolis hamda tarixiylik tamoyili nuqtai –nazaridan chetlashmaslik nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu o'rinda, Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasini zabt etishdan ko'zlagan maqsadlarini tadqiq etish va mazkur masalaga nisabtan mavjud qiziqish bugungi kunda zamonaviy tarix faninig dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Turkiston istilosi boshlanishidan ilgariyoq bu erdagi foydali qazilmalarni o'rganish ishlari boshlangan bo'lib, ayniqsa o'lka bosib olinganidan keyingi davrda Turkistonning tabiiy boylik manbalarini o'rganishga qattiq kirishilib, juda ko'p ma'lumotlar qo'lga kiritilgan.

Turkiston general-gubernatorligining Kaspiyorti viloyati ham tabiiy qazilma konlariga boy bo'lib, bu haqda o'z davrining turli adabiyotlarida, jumladan rasmiy manbalarda qayd etib o'tilgan. Xususan, yillar kesimida muntazam ravishda nashr etib borilgan Kaspiyorti viloyati sharhlari, XX asr boshlarida o'lkada taftish ishlarini olib borgan K. Palenning asarlari, o'lkada geologik izlanishlar olib borgan V. Mushketov [2], konchilik injeneri A. Konshin [1] kabi olimlarning tadqiqotlari va boshqa ko'plab turdagi manbalarda Turkistonning tabiiy boyliklari

haqidagi muhim ma'lumotlar keltirilgan bo‘lib, ular orasida Kaspiyorti viloyati borasidagi ma'lumotlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Xususan, 1881-1886 yillarda A. Konshin Kaspiyorti viloyatini tadqiq etib, bir qator ekspediтsiyalar uyushtirgan. U viloyatning geologik tuzilishi o‘rganib, tabiiy qazilma konlarini aniqlagan.

Tadqiqotni amalga oshirishda fanlararo yondashuv tamoyiliga asoslanildi. Chunki Turkiston general-gubernatorligida rus tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar hamda o‘lka tabiiy boyliklarining mustamlakachilar tomonidan o‘zlashtirilishi jarayonini tarixiy nuqtai nazardan o‘rganishda tarix fani bilan birgalikda geologiya, geografiya, mineralogiya kabi fan tarmoqlariga oid ma'lumotlar ham ko‘rib chiqildi. Tadqiqotni yozishda tizimli va qiyosiy tahlil, tarixiylik usullaridan foydalanildi. Bu esa Turkistondagi geologik izlanish ishlari va tog‘-kon sanoatidagi o‘zgarishlarni davrlar kesimida taqqoslash, olib borilgan mustamlakachilik siyosati izchil davom ettirilganini manbalar asosida tahlil etish va ochib berishga imkon yaratadi.

O‘lkaning tabiiy boyliklarini tashib ketish va o‘z manfaatlari yo‘lida ishlatishdan tashqari, mustamlakachi Rossiya imperiyasi hukumati o‘z xazinasini Turkistonning turli hududlarida qazib olinadigan tog‘-kon boyliklaridan olinadigan soliqlar bilan ham to‘ldirib borgan.

Buni Kaspiyorti viloyati misolida tahlil qilinsa, yillar davomida er osti boyliklaridan keladigan daromad oshib borganligini ko‘rish mumkin. 1898 yilda Kaspiyorti viloyatida neft, ozokerit (tog‘ mumi), osh tuzi, ohak va boshqa qurilish materiallari qazib olingan. Bular orasida qazib chiqarish hajmi va xazinaga tushadigan daromadi jihatidan osh tuzi birinchi o‘rinda turgan va bir yilda 1 168 357 pud [7] osh tuzi qazib olingan. Neft esa Cheleken orolida aka-uka Nobellar shirkati tomonidan, shuningdek shu erdagi eski turkman quduqlaridan qazib olingan. Shu yili 343 249 pud, ya'ni oldingi yildagidan 4 baravar ko‘proq neft qazib olingan. Ozokerit ham mahalliy aholi tomonidan Chelekendan kam miqdorda bo‘lsa-da, qazib olingan [3: 116].

Toshtuz Krasnovodsk uezdida qazib olingan va bir qismi mahalliy ehtiyojlarga ishlatilgan, qolgan qismi Eron va Kavkazga olib ketilgan. Uezdning Cheleken hududida bir yilda 993 010 pud tuz qazib olingan bo‘lsa, shundan 958,660 pudi chetga olib chiqilgan. Uning uezd bozoridagi narxi 6,5 kop.ni tashkil etgan. Baloishim stansiyasida tuz bir bo‘lagi 10 kop., maydalangan tuzning bir pudi 20 kop.ga sotilgan [3: 117].

Viloyatning Mullaqori va Mang‘ishloq kabi hududlaridan ham tuz qazib olinib, mahalliy aholi iste'molidan tashqari qo‘shni hududlarga ham jo‘natilgan. Mang‘ishloq uezdidagi ko‘llardan bir yilda qazib olingan 15 100 pud tuzning 1 800 pudi Nikolaevsk manzilgohi aholisiga bepul tarqatilgan, qolgan qismining har bir pudidan 2 kopdan hukumatga to‘lov olingan. Marv va Tajan uezdlari ko‘llaridan olinadigan tuz aholi ehtiyojiga ishlatilgan, shuningdek, Afg‘onistonning chegara hududlarida sotilgan [3: 117].

Mustamlaka davrida Kaspiyorti hududlaridan qazib olinadigan er osti boyliklaridan biri toshko‘mir hisoblanadi. O‘lkadagi tog‘-konchilik sanoatini taftish qilgan K. Palen Turkistonga metall kam miqdorda olib kirilganini qayd etadi. Uning ma'lumotlariga ko‘ra, 1 mln pudga yaqin po‘lat, temir va cho‘yan tayyor mahsulot va ruda ko‘rinishida Krasnovodsk va Saksovul stansiyasi orqali Toshkent va O‘rta Osiyo temir yo‘llari vositasida keltirilgan. Shuningdek, 5 ming pud mis buyumlari, 15 ming pud qo‘rg‘oshin va rux, 1mln 500 ming pud kerosin va neft mahsulotlari shu tarzda olib kelingan.

Turkistonda temir umuman qazib olinmagan, boshqa metallar va neft mahsulotlari esa juda kam miqdorda qazib olingan bo‘lib, Turkiston aholisining tog‘-kon sanoatiga ehtiyoji unchalik katta emas edi. Dastlabki paytda o‘lkada asosan metall va yoqilg‘ining katta iste'molchilari Toshkent va O‘rta Osiyo temir yo‘llari edi. Biroq keyinchalik arzon yoqilg‘iga ehtiyoj kuchaydi,

saksovulzorlar esa yil sayin kamayib, ularning narxi tobora oshib bordi. Saksovullarni chopish taqiqlanishi oqibatida va fabrika-zavod ishlab chiqarishi kuchayib borgan sayin toshko‘mirga ehtiyoj tobora kuchaydi. Shu sababli toshko‘mir konlarini izlash va qazib olishga zo‘r berildi [5: 31].

Turkiston mintaqasining deyarli har bir hududida toshko‘mir konlari mavjudligi imperiya hukumati tomonidan tashkil etilgan ekspedisiyalar orqali aniqlangan. Kaspiyorti viloyati Qoratov tog‘larining Mang‘ishloq uezdiga tegishli hududlarida mustamlaka hukmronligining dastlabki davrlaridayoq toshko‘mir konlari izlab topilgan. Masalan, dengizdan 30 verst uzoqlikdagi Apazir qudug‘i yonida topilgan toshko‘mir oson va alangasiz yonuvchan bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan uning boshqa xususiyatlari va taxminiy hajmi aniqlangan. Umuman, Qoratov tog‘larining boshqa hududlarida ham toshko‘mir konlari topilgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari yomon sifatli deb topilib, qazuv ishlari olib borilmagan. Krasnovodsk uezdining bir qancha hududlarida qo‘ng‘ir ko‘mir konlari aniqlangan, biroq ularning aksariyati ishga tushirilmagan [5: 32,33].

Bu davrda tog‘-kon sanoatida kir degan mahsulot ham qazib olingan. Kir (ushbu qazilma nomi Farg‘onada xilq deb ishlatilgan) neftning oksidlanishi natijasida vujudga kelgan mahsulot bo‘lib, er yuzasiga tabiiy yo‘l bilan chiqqan neft vaqt o‘tishi bilan atmosfera ta'sirida oksidlangan va tobora quyilib bitumga aylangan. Turli jinslar bilan qo‘shilgan ushbu mahsulot asfalt ko‘rinishini olgan. Hudud aholisi ushbu mahsulotni qazib olib, qurilish maqsadlarida, xususan, uy-joylarning asosi (fundamenti), pol va tomlarni yopishda ishlatgan. Kir Kaspiyorti viloyatining Cheleken oroli markaziy qismlari va Neft tog‘i hududlarida tarqalgan. Chelekenda kirni qayta ishlash bilan turkmanlar shug‘ullanganlar va bu mahsulotni Uzunada va Kaspiyorti viloyati hududida sotganlar. Kir yiliga 10 ming pud miqdorida qazib olingan. XX asr boshlariga kelib bu ko‘rsatkich ancha qisqargan. Neft tog‘idan ham kir turkmanlar tomonidan qazib olingan va temir yo‘l tarmog‘ida neft ishlatila boshlaganidan keyin kir temir yo‘llar orqali tashilib, yo‘nalish bo‘yidagi qurilishlarda ishlatila boshlangan [5:101].

Kaspiyorti viloyatida mavjud foydali qazilmalardan yana biri oltingugurt bo‘lib, uning hajmi bo‘yicha viloyat o‘lkada birinchi o‘rinlarda turgan. Biroq aloqa yo‘llarining mavjud emasligi ushbu qazilmadan ishlab chiqarishga keng foydalanish imkonini bermagan. Oltingugurtning turli xil ko‘rinishlari, jumladan, viloyatning Krasnovodsk uezdidagi Cheleken oroli, Krasnovodsk, Chiqishlar, Ko‘kurtota ko‘li, O‘rta Osiyo temir yo‘lining Mullaqori, Qozonjiq stansiyalari va boshqa joylarida aniqlangan. Bundan tashqari, oltingugurt Ashxobod uezdining bir qancha hududlarida mavjud edi [5: 102, 103]. Hudud aholisi azaldan oltingugurtni qazib olib, undan turli maqsadlarda foydalangan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Kaspiyorti viloyatining eng ko‘p qazib olinadigan er osti boyliklaridan biri neft hisoblanar edi. Neft va neft mahsulotlari Turkiston aholisining maishiy turmushida azaldan keng qo‘llanilar, xususan, neftdan olinadigan kerosin yoritish maqsadidaa ishlatilar edi. Imperiya hukumatining Turkistondagi ma'muriyati rasmiy ma'lumotlariga ko‘ra, Turkiston aholisi jon boshiga bir yilda 1,9 pud kerosin to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, bu mahsulotga bo‘lgan talab yildan-yilga kuchaygan. Dastlab neft Bokudan olib kelingan va uning hajmi yil sayin oshib borgan. Vaqt o‘tishi bilan yoqilg‘i sifatida neftga bo‘lgan talab kuchayib, o‘lkadagi ikki temir yo‘l tarmog‘i ehtiyojlari uchun 18 mln pud ishlatilgan. Bir qator sanoat korxonalari ham bug‘ qozonlarini ishlatish uchun ko‘mir topolmaganliklari sababli neftdan foydalanganlar. O‘lkada issiqlik dvigatellari kirib kela boshlaganidan so‘ng neftga bo‘lgan talab yanada kuchaygan. Yuqorida keltirilgan sohalar uchun taxminan 3 mln pud neft va neft mahsulotlari kerak bo‘lgan. Temir yo‘llar bilan qo‘shib hisoblaganda o‘lka ehtiyojlari uchun taxminan jami 21 mln pud neft zarur edi. Buning uchun neft dastlab to‘laligicha Bokudan olib kelingan bo‘lsa,

keyinchalik Farg‘ona viloyatidan qazib olinadigan bo‘ldi [5: 62]. Ammo tobora rivojlanayotgan sanoat ehtiyojlari neftga bo‘lgan talabni kuchaytirib yubordi.

1874 yilda Aka-uka Nobellar shirkati turkmanlardan neft mavjud erlarni ijaraga olib, burg‘ulash orqali ma'dan qidirishni yo‘lga qo‘ydilar. Dastlabki burg‘ulash ishlari natijasida ko‘p neft olishga muvaffaq bo‘lingan. Shirkat tomonidan juda ko‘p erlar ijaraga olingan va yuzlab turli xil hajmdagi burg‘ulardan foydalanilgan. XX asr boshlarida 15 ta quduqdan neft olingan, ulardan 2 tasi favvora bo‘lib otilib chiqqan. Shirkatning ma'lumotlariga ko‘ra, bu erlardan 6 mln pud ma'dan olingan. Chelekendan qazib olingan neft shirkatning bug‘ kemalari tomonidan Bokuga olib ketilgan va u erdagi zavodda neft haydalib, parafin olingan. Mazkur zavodda jami 97 ishchi ishlagan [5: 69, 70]. Umuman, Cheleken hududidan neft qazib olish ishlari bilan yuqorida nomi keltirilgan shirkatdan tashqari bir necha firmalar shug‘ullangan. Temir yo‘l qurilishi ushbu hududda neft izlash va qayta ishlash bilan bog‘liq jarayonlarning yanada kuchayishiga olib kelgan.

Kaspiyorti viloyatida qurilish materiallari va boshqa foydali qazilma konlari ishga tushirilgan. Er osti boyliklaridan keladigan daromad ham yildan-yilga oshib borgan. Masalan, viloyatda eng ko‘p uchraydigan osh tuzi qazib olish hajmi tobora ko‘payib, 1911 yilda narxi 190 210 rublga teng bo‘lgan 2 571 900 pud tuz qazib olingan bo‘lib, undan kelgan daromad davlat xazinasiga o‘tgan [4: 61].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mustamlakachilik davrida Turkistonning tabiiy boyliklari hisobsiz ravishda imperiya tomonidan tasarruf qilingan. Tadqiqotlar davomida aniqlangan qazilma manbalar ishga tushirilib, tog‘-kon sanoatida ishlatilgan. Faqatgina ulardan keladigan foyda o‘lka xalqlari uchun xizmat qilmagan, balki mustamlaka davlat xazinasiga tushgan. Imperiya hukumati nafaqat o‘lka boyliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish, balki ulardan keladigan solq va to‘lovlar hisobiga ham o‘z xazinasini to‘ldirishga harakat qilgan. Shu maqsadda Turkiston o‘lkasida, jumladan Kaspiyorti viloyatida geologik qidiruvlar olib borish va tog‘-kon sanoatida faoliyat yuritish istagida bo‘lgan tadbirkorlar qo‘llab-quvvatlangan.

Aytish lozimki, Kaspiyorti viloyatida olib borilgan geologik izlanishlar va ularning oqibatlari, ushbu hududda tog‘-kon sanoatining vujudga kelishi masalalari tarixi to‘liq o‘rganilmagan va bu boradagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Konshin A. M. Geologicheskiy ocherk Zakaspiyskogo kraya. Predvaritelniy otchet ob ekspedisii v Zakaspiyskiy kray i severniy Xorasan v 1886 g. G. Radde, A. Valtera i A. M. Konshina, Tiflis, 1887.
2. Mushketov I.V. Turkestan. Geologicheskoe i orograficheskie opisanie po dannim sobrannim vo vremya puteshestviy s 1874 po 1880 g. T.1. V dvux chastyax. – SPb., Tipografiya M.M.Stasyulevicha,1886.
3. Obzor Zakaspiyskoy oblasti za 1898 god. Asxabad: Tipografiya Shtaba 2-go Turkestanskogo Armeyskogo korpusa, 1900.
4. Obzor Zakaspiyskoy oblasti za 1911 god. Asxabad: Tipografiya I.I. Aleksandrova. 1915.
5. Otchet po revizii Turkestanskogo kraya, proizvedennoy po visochayshemu poveleniyu senatorom gofmeystorom grafom K. K Palenom. Gornoe delo. Sankt-Peterburg. Senatskaya tipografiya. 1910.
6. 1 verst – 1,06 км.ga teng uzunlik o‘lchovi.
7. 1 pud – 16, 380 kilogrammga teng og‘irlik o‘lchovi.
8. Obruchev V. A. Peski i stepi Zakaspiyskoy oblasti. Izvestiya Russ. Geogr. O-va. T. XXIII. 1887.